

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlarini.....	106
--------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
--	-----

J.S.Sotvoldiyev

Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
--	-----

T.A.Azizov

Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
--	-----

A.To'xtasinov

Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
---	-----

F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich

Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128
---	-----

TARIX

O.V.Mahmudov

"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
--	-----

Ф.Т.Баитова

Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
--	-----

X.X.Mamajonov

Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
---	-----

I.R.Tishabayeva

Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
--	-----

X.L.Xolmirzayev

"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
---	-----

O.B.Nizomiddinov

Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
---	-----

Sh.B.Muhiddinova

Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
---	-----

M.A.Umarov

Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
--	-----

S.G'.Nigmatova

O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
--	-----

J.Axmedov

Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
---	-----

X.P.Jurayev

Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
---	-----

H.S.Yusupov

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
--	-----

M.Q.Tolibboyev

Xalq dostonlarida otlarning harb ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
--	-----

X.X.Mamajonov

Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201
--	-----



UO‘K: 394(575.1)

**XALQ DOSTONLARIDA OTLARNING HARB ISHIDAGI O‘RNI
(tarixiy-elshunoslik tahlili)****THE ROLE OF HORSES IN WARFARE IN FOLK EPICS
(A Historical and Ethnographic Analysis)****РОЛЬ ЛОШАДЕЙ В ВОЕННОМ ДЕЛЕ В НАРОДНЫХ ЭПОСАХ
(историко-этнографический анализ)****Tolibboyev Muxtorjon Qosimjon o‘g‘li** 

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining nodir na‘munalari bo‘lgan xalq dostonlaridagi ot obrazining harbiy ishidagi ahamiyati moddiy va yozma manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Turkiy xalqlarda otlarga bo‘lgan munosabat harbiy sohada alohida ahamiyatga ega. Otlarning qanday tanlanishi, harbiy o‘yinlarda ularning ishtiroki, otlar bo‘linmalarining qo‘shingdagi o‘rni, shuningdek, harbiy usul va hiylalarda otlarning vazifalari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. Xalq dostonlari ham tarixiy va elshunoslik manbai o‘laroq fanga xizmat qilishi dalillangan.

Аннотация

В данной статье рассматривается значение образа лошади в военном деле, отражённое в народных эпосах — уникальных памятниках устного народного творчества. На основе материальных и письменных источников анализируется особое отношение тюркских народов к лошадям в военной сфере. Освещаются вопросы отбора лошадей, их участие в военных играх, роль конных подразделений в армии, а также использование лошадей в различных военных приёмах и стратегиях. Доказано, что народные эпосы выступают не только как художественные произведения, но и как ценные исторические и этнографические источники.

Abstract

This article presents an analysis of the role of horses in warfare as depicted in folk epics — unique examples of oral folk literature. Drawing on material and written sources, the study explores the significance of horses in the military traditions of Turkic peoples. Special attention is given to the selection of horses, their participation in military games, the role of cavalry units within armies, and the tactical and strategic use of horses in warfare. The article demonstrates that folk epics serve not only as literary works but also as valuable historical and ethnographic sources for scholarly research.

Kalit so‘zlar: doston, baxshi, harbiy ishi, Boychibor, G‘irko‘k, Jiyron, Qora qashqa, bedov, arqun, Oltin qoboq, Boburnoma, Alpomish, “Arpali” ko‘l, Rustamxon, otlar qo‘shini, sayis, harbiy hiyla.

Ключевые слова: эпос, бахши, военное дело, Бойчибор, Гиркёк, Джийрон, Кара Кашка, бедов, аркун, Золотой кабак, Бабурнаме, Алпамыш, озеро Арпали, Рустамхан, конница, сайис, военная хитрость.

Key words: epic, bakhshi, warfare, Boychibor, Girkok, Jiyron, Kora Kashqa, bedov, arkun, Golden Pumpkin, Baburnama, Alpamish, Arpali Lake, Rustamkhan, cavalry, sayis, military strategy.

KIRISH

Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbeklarda ham hayvonlar insonlarni saqlovchi, o‘z homiyiligiga olgan siymo sifatida talqin qilingan. Bu esa qadimiy afsonaviy qarashlarda o‘z aksini topib, hatto xalqning ajdodboshisi sifatida ulug‘langan [1]. Jumladan, ular orasida otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Tarixiy davrlar mobaynida o‘zbek xalqining qadimiy turmush tarzida ot alohida mavqega ega bo‘lgan. Otlar insonlar uchun nafaqat transport vositasi, balki xalq hayotining ajralmas bo‘lagi, jangovar qudratning ramzi sifatida e‘tirof etilib, harbiy kurashlarda beqiyos yordamchi, taktikalar va strategiyalarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, otlar harbiy yurishlarda tezkorlik, tanasini g‘ayrioddiy boshqara olishligi, bardoshlilik va sodiqlik timsoli bo‘lib, ko‘plab tarixiy voqealarda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Bu holat xalq og‘zaki ijodining eng yorqin namunasi bo‘lgan dostonlarda keng va boy tasvir topgan. Ot xalq dostonlariga ko‘ra Vatan timsoli sifatida ham e‘tirof etilgan [2]. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan birorta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va

kurashlarida doimiy yo'ldoshi, ishonchli qo'ldoshi va yaqin do'stidir [3]. Dostonlarda otlar o'troq va chorvador hayot tarzi, harbiy yurishlar hamda shaxsiy sadoqatning asosiy timsoli bo'lib kelgan. Ularni bevosita janglarda ishtiroki g'alabani eng asosiy omillaridan biri hisoblangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada dostonlaridagi ot obrazi bilan bog'liq harbiy ishiga xos jihatlari harbiy tarix va elshunoslik yo'nalishida muhim ma'lumotlar folklorshunos olimlar H. Zarifov, Sh. Turdimov, A. Tilovov, shuningdek, elshunos olimlar A. Ashirov, P. Norbo'rayevlarning tadqiqotlarida uchraydi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil va fanlararo yondoshuv uslubidan foydalanilgan bo'lib, bunda xalq dostonlari va tarixiy manbalar o'rtasidagi o'xshashliklar tahlil qilinib, dostonlardagi otlar obrazlari bilan tarixiy manbalardagi otlarning harbiy ahamiyati solishtirilgan. Bunda dostonlarning badiiy xarakteri va tarixiy manbalarning aniq ma'lumotlari o'rganilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Dostonlarda ot juda muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, u jangchilarning muvaffaqiyatga erishuvida eng asosiy ishni bajaradi. Qahramon oti tufayli o'zining maqsadlariga yetishadi. Shuningdek, dostonlarda otlarning ham xuddi qahramonlarniki singari o'zlarining ismlari mavjud. Shuningdek, ular aynan shu qahramon uchun birlashtiriladi. Go'ro'g'lining otining nomi "G'iro't", Alpomish dostonida "Boychibor", Yodgor dostonida "Jiyron", Eralining otining nomi esa "Qora qashqa" bo'lgani ularning insonlar bilan teng mavqeda turganidan dalolat beradi.

Turon xalqlarida ot qadimdan eng hurmatga sazovor jonzotlardan biri bo'lib, u nafaqat harbiy sohada, balki xalqimizning kundalik turmushida ham beqiyos o'ringa ega bo'lgan. Qadimgi Farg'onada "samoviy tulporlar" bo'lgani va hattoki Xitoy hukmdorlari ham ushbu otlarni qo'lga kiritishni orzu qilganligiga tarix guvoh. Xususan, Andijon viloyatida joylashgan Mintepa yodgorligi yaqinidagi Ulug'tog' etaklarida samoviy otlarning suratlari bugungi kunimizgacha saqlanib qolgan [4]. Xalq dostonlarida ham otlarning samo bilan aloqadorligi xususida ishoralar mavjud hamda ularning obrazi asosan qahramonning safar yoki harbiy ishdagi voqeliklarida o'z aksini topadi. Qahramonlik uslubidagi Go'rog'li turkumi dostonlarida afsonaviy G'iro'tning "G'irko'k", "Ko'kg'iro't" deb aytilishi ko'k so'zining otning rangini ifodalashini anglatmaydi. Bu Ko'ktangri dinining asoslari, osmon ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni samoviy degan ma'noni anglatadi. Ko'k rangi turkiy mifologiyada go'zallik ramzi va qadimgi Turon xalqlari e'tiqod qilgan ko'ktangrining rangi tarzida talqin etiladi. Chunonchi, dostonlardagi jangovor ot obrazi, bu jihatdan ota bobolarimizning otga bo'lgan ishonch e'tiqodlari bilan muvofiq kelmoqda [5]. Demak, turkiy xalqlar hayvonlardan asosan ot bilan ilohiy bog'langan va bu tarixiy jarayonlarda, shuningdek, dostonlarda ham o'z aksini topgan.

Xalq dostonlarida qahramonlarning otlarni tanlashi ham alohida o'rin egallab, yaxshi naslli otlarni "bedov otlar" deb nomlangan. Alpomish o'zining otini uch marta qayta tanlashiga to'g'ri keladi, har uch safarda ham Boychiborga yo'liqadi. Ot Alpomishga ma'qul kelmagan bo'lsa-da, noiloj u bilan safarga chiqadi. Biroq, voqealar rivoji shuni ko'rsatadiki, Boychibor barcha otlardan yaxshi va tezkor bo'lib chiqadi. Dostonda keltirilgan bu voqelikning ham asil tarixiy ildizlari mavjud. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "arqun" atamasi orqali ifodalaniib, yovvoyi otdan qochgan bolasiga nisbatan ishlatilgan [6]. Eng muhim jihati shuki, ana shu otlar poygalarda eng chopqir va tezkor bo'lgan. Jangovar harakatlarda va to'qnashuvlarda jangchi va ot o'zaro bir tananing ikki bo'lari singari bo'lib qoladi. Shuning uchun doston qahramonlari ot tanlash masalasiga alohida e'tibor bilan yondoshadilar. O'rta asrlarga oid manbalarning guvohlik berishicha, otlarni tanlashda uning zoti, rangi, ko'rinishi alohida e'tiborga olingan. Jumladan, oq otning sohibi doimo jangda zafar qozonadi degan ishonch mavjud bo'lgan hamda "otning tun odamlarining hisori va agar ot bo'lmasa, harbiylarga jasur odamlar degan nom noloyiq bo'lur edi [7]", deya ulug'langan. Rustamxon dostonida jangchi uchun ot qanchalik muhim ekanligini quyidagi parchadan bilishimiz mumkin:

Himcha oyim (Huroyimning kanizi) Rustamxonga aytadi:

Er yigitni sherdil qiladi po'lot,

Ostida mingani bo'lsa bedov ot.

Yarog'i yarqillab qo'lida tursa,

Unday vaqtda kelar yigitga g'ayrot [8].

"Bedov" ot bu o'ta kuchli va epchil, tez chopa oladigan otga beriladigan ta'rifdir. Otning qahramonga katta kuch va tezlik berishi jangchining jang maydonida muvaffaqiyat qozonishiga hissa qo'shgan. ya'ni qachonki yigit mana shunday otni minsa, unga shundagina g'ayrat keladi deb ta'kidlanmoqda.

TARIX

Xalq dostonlarida harbiy mashg'ulotlar yoki o'yinlarda ham otlar alohida ahamiyat kasb etadi. "Go'ro'g'li"da otda va kurash bo'yicha harbiy mashg'ulotlarning tasviri bor: "Hoy, botir yigit, otda ham o'zingizni yengishga yo'l qo'ymadingiz, kurashda ham yiqilmadingiz" [9]. Og'zaki ijodda alohida tilga olinadigan harbiy o'yinlardan biri bu "Oltin qoboq" o'yini hisoblanadi. Bu o'yin jangchining ot minish bobidagi mahoratidan tashqari, kamondan o'q uzishdagi mohirligi bilan uyg'unlashganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Oltin qoboq qadimda Navro'z va hosil bayrami sayillarida, sunnat hamda nikoh to'y marosimida baland yog'och tepasiga ichiga tanga solingan qovoq osib, shu nishonni ellik, oltmish qadam masofadan otish udumining nomidir. Bu o'yin yigitlarning chavandozligi, chaqqonligi, merganligi va har qanday nishonni bexato ura bilishi bilan karakterlangan [10]. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida bu o'yinning nomi "oltin qovoq" deb atalganligi hamda harbiy tayyorgarlik jarayonida o'tkaziluvchi muhim o'yinlardan biriga aylanganligini qayd etilgan [11]. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar tarkibiga kiruvchi "Oltin qoboq" dostonining Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Ro'zimbek Murodov, Umir shoir Safar o'g'li, Chori Umirov singari baxshilar tomonidan kuylangan variantlari mavjud. Jumladan, Mardonqul Avliyoqul o'g'li kuylagan variantda shunday qayd etiladi:

G'ayrat minan Avazxon,
Qaboqni qildi nishona.
Oyday qib Avaz yuzini,
O'ynatdi Layli bo'zini.
Otini o'ynatib Avazxon,
Oltin qaboqni choqladi....
Ot yugurishida o'q otdi.
Avazxonning otgan o'qi
Oltin qaboqni bo'lib ketdi [10].

Shayboniylar davrida ham bu o'yin harbiy ko'rikning asosiy bellashuvlaridan biri sifatida o'tkazib kelingan [12]. Bunday o'yinlar ham jangchilarning harbiy mahoratini oshirgan, ham otlar uchun kichik jangovar tajriba vazifasini o'tagan.

Yana bir muhim jihat shuki, qahramonning otni shaxsan o'zi tayyorlashi alohida ahamiyat kasb etib, safar va harbiy harakatlardagi harbiy mas'uliyatni his qilish masalasini yoritib beradi [13]. Alpomish dostonida ham qahramon otni safardan oldin o'zi tayyorlashi haqida bayon qilingan: " — Shunday qilib, Alpomish otni tayyorlab, kiyinib, beliga keskir qilichlarni boylab; "Arpali" ko'lga otlana berdi" [14]. Baxshi, avvalo, ot egasining (agar uni sayis emas, qahramonning o'zi egarlayotgan bo'lsa) otni safar yo jangga tayyorlashni nechog'li mukammal bilishligini ko'rsatadi [5]. Bu esa jangchining sinchkovlik, uddaburonlik, harbiy safarga jiddiy yondashuvi va shaxsiy mas'uliyat hissini ifodalaydi.

Harbiy harakatlarda yoki to'qnashuvlarda otlar va otliqlar eng muhim harbiy birlik sanalgan. Erali va Sherali dostonida yurtga yov kelganda hukmdorning piyoda qo'shin bilan bir qatorda otliq qo'shinni tashkil etishi bo'yicha farmonini e'lon qilganligi kuylangan:

Podsho hamma hokimi, beklarini xat bilan chaqirtirib olib, shularga qarab:
— Yomon keldi birga taraf, maydonga lashkar to'da qilinglar, — deb bir so'z aytib turibdi.
Menday podsho bormi jahon — dunyoda,
Qirq ming kishi qiling bo'lsin piyoda,
Yigit g'ochchoq yigit bo'lsin piyoda,
Piyoda sarbozdan qirq ming jo'nasin.
Qirq ming bo'lsin otli, yaproqli,
Qirag'ay nayzali, tilla po'pakli,
Ham botir bo'lsin bir sher yurakli,
Shundayin atlidan qirq ming jo'nasin [15].

Otlardan nafaqat harbiy to'qnashuvlarda, balki, dushmanga qarshi harbiy hiylalarni qo'llashda ham foydalanilgan. Tarixiy dostonlar turkumiga kiruvchi "Oychinor" dostonida: "Shayboniy Qaysarning gapi bo'yicha otlarga chapar (Xirmon yanchishda ish hayvoniga bog'lab ishlatiladigan maxsus moslama. Bu yerda chang chiqarish uchun foydalanilgan)larni sudratgan edi. Soyda yigirmata, o'ttizta navkar bo'lib, ot chopib chapar sudratib, changitib yotgan edi", — deb qayd etilgan [16]. Sun'iy chang chiqarish orqali dushmanga ko'p sonli lashkar yaqinlashayotgandek taassurot berib, ruhiy bosim o'tkazilgan. Turon harbiy an'analarda raqibni chalg'itish va aldash o'ziga xos

urush usuli hisoblangan. O'rta asrlarda xuddi mana shunday harbiy hiylani Sohibqiron Amir Temur dushmanlarga qarshi qo'llaganligini Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida qayd etgan. 1364 yili Ilyos Xojani Keshdan haydab chiqarishda bor-yo'g'i 300 kishidan iborat o'tliq askari otlarining ikki tarafiga shox-shabbalarni boylab, chang-to'zon ko'tarib, yirik lashkar kelayotgandek dushman ko'ngliga vahima solishi orqali dushmanni chekinishga majbur qilgan. Bundan aniq bo'ladiki, ot bilan harbiy harakatlarda ishtirok etish, otsiz jang qilgandan ko'ra ancha samalari va zafar qozonish uchun katta imkoniyat bergan.

Umuman olganda, qadimiy turkiy xalqlarda otlarning hukmdorlar yoki o'z egalari bilan birga ko'mish jarayoni amalga oshirilgan. Bunda otlar keyingi hayotda ham o'z egalari xizmat qilishi mumkinligi urg'ulangan. Bu jihatdan ko'p ehtimol urushlarda keltirgan ulkan xizmatlari evaziga u shu darajada ulug'langan bo'lishi mumkin.

XULOSA

O'zbek xalq og'zaki ijodining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan dostonlar millatning tarixiy xotirasi va harbiy-madaniy an'analarning badiiy yodgorligidir. Dostonlarda ot obrazining keng va chuqur tasvirlanishi xalq hayotida, ayniqsa, harbiy sohada otning tutgan o'zni qanday ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Baxshi shoirlarning mukammal ijrosidagi badiiy ot obrazi faqat vosita emas, balki, jang maydonining qahramoni, vatanning chin ma'noda timsoli sifatida tasvirlangan. Demak, xalq dostonlarida kuylangan harb ishidagi otlarning roli moddiy va yozma manbalarda ham o'z aksining topishi o'zbek xalq og'zaki ijod na'munalari ham tarix va elshunoslik uchun qimmatli manba bo'la olishini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A. O'zbek xalq turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti // Uzbekistan: Language and culture. 2023-yil 1-son. – B. 98.
2. Turdimov Sh. Epos va etnos. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 96.
3. Zarifov. H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy bo'yicha tekshirishlar. Jangovor ot obrazining qadimiy asoslariga doir // O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4-kitob. Po'ltan shoir. – Toshkent: 1976. – B. 65.
4. Husanova Sh. Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2022. №1. – B. 142.
5. Tilavov A. O'zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini: Filol. fanlari nomz... diss.: Toshkent, 2000. – B. 47 – 48, 92.
6. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 56.
7. Umar Xayyom. Navzo'znoma. – Toshkent: Mehnat, 1990. – B. 43.
8. Rustamxon. doston. / Xalq og'zaki ijodi turkumidan. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – B. 38.
9. Norbo'tayev P. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik xususiyatlarining xalq dostonlarida aks etishi: Tarix fanlari dok... diss.: Termiz, 2021. – B. 69.
10. Oltin qoboq (dostonlar). J.39. Xalq ijodi yodgorliklari. – Toshkent: Renessans press, 2024. – B. 5, 17.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 135.
12. Azizov A. Ot bilan bog'liq milliy o'yinlar tarixi va madaniyati // Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti. 2025. № 1. – B. 98.
13. Gulqizoy. doston / "Go'ro'gli" dostonlari turkumidan. – Toshkent: Oltin qalam, 2024. – B. 94.
14. Alpomish. J.1. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari. – G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B. 117.
15. Erali va Sherali. doston. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – B. 256.
16. Oysuluv; Oychinor; To'lg'onoy; Xushidoy, Yakka Ahmad: dostonlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B. 99.
17. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 6.